

UDK 141.113

THE MULTIPARTY SYSTEM IS AN IMPORTANT INSTITUTION IN DEMOCRATIC GOVERNANCE

ДЕМОКРАТИК БОШҚАРУВДА КО'ППАРТИЯВИЙЛИК ТИЗИМИ МУНИМ ИНСТИТУТ

МНОГОПАРТИЙНАЯ СИСТЕМА ВАЖНЫЙ ИНСТИТУТ В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ УПРАВЛЕНИИ

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Ma'muriy-tashkiliy faoliyati fakulteti boshlig'i, falsafa fanlari doktori, professor

E-mail: siroj-berdikulov@rambler.ru

Abstract. The author of the article focuses on the concept of governance, its content and essence, as well as the broad and narrow scales of governance, democratic governance, the participation of civil society institutions in it, and the role of democratic governance in the systematic organization of public activities. The main issues discussed include the activity of political parties, which are the subjects of the multiparty system, in implementing democratic governance based on the interests of the electorate, the decision-making process in democratic governance under multiparty conditions, the internal democratic governance within parties, their position before society, the people, and the electorate, as well as the development of a competitive environment between parties. The article also addresses the peculiarities of democratic governance in the context of a multiparty system, where the opinions and feelings of the governance object are not always considered by the subject, and decisions are made not from the perspective of an individual but based on public and state needs. The goal of creating innovative governance within a multiparty system is to ensure the interests of individuals.

Keywords: multiparty system, governance, democracy, modernization, representative democracy, participatory democracy, political party, governance system

Аннотация. Автор в статье уделяет внимание понятию управления, его содержанию и сущности, а также широкому и узкому масштабам управления, демократическому управлению, участию институтов гражданского общества в нем, а также роли демократического управления в системной организации общественной деятельности. В качестве основных вопросов рассматриваются активность политических партий, являющихся субъектами многопартийной системы, в реализации демократического управления, исходя из интересов электората, процесс принятия решений в демократическом управлении в условиях многопартийности, внутреннее демократическое управление в партиях, их позиция перед обществом, народом и электоратом, а также развитие конкурентной среды между партиями. Также рассмотрены особенности демократического управления в условиях многопартийности, когда не всегда мнения и чувства объекта управления принимаются субъектом, а решения принимаются не с точки зрения отдельной личности, а с учетом общих интересов и государственных нужд. Главной целью создания инновационного управления в условиях многопартийной системы является обеспечение интересов человека.

Ключевые слова: многопартийность, управления, демократия, модернизация, репрезентативная демократия, партиципаторная демократия, политическая партия, система управления

Kirish. Kishilik jamiyati taraqqiyotida boshqaruvning turli shakl va usullaridan foydalanilgan. Zamonaviy davrda fan-texnika taraqqiyoti, kishilik jamiyatida insonlar o'rtasidagi muloqot madaniyatini o'zgarishi boshqaruvning ierarxik o'sishiga, birmuncha murakkab tus olishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida innovatsion boshqaruv shakliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday boshqaruvda xalq va davlat manfaatlarini jamiyatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish jarayonlari bilan uyg'un holda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Dunyodagi ko'pchilik taraqqiy topgan mamlakatlarda davlat rahbarining milliy parlament a'zolari huzurida eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo'yicha Murojaatnoma bilan chiqish tajribasi mavjud. *Davlat boshqaruvining bunday demokratik usuli* (kursiv bizniki – muallif) bugun O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalambor, xalq bilan muloqot prinsipiga g'oyat uyg'un va hamohang bo'lib, bizning ish faoliyatimiz samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi" [1]. Haqiqatan, jamiyat taraqqiyotida shu narsa kuzatiladiki, qayerda boshqaruv masalasi yaxshi yo'lga qo'yilgan va tartibga solingan bo'lsa, u o'zining samarali natijasini beradi.

Ma'lumki, boshqaruv mazmuni, shakli, amal qilish ko'lam va boshqa mezonlarga qarab farqlanadi. Turli idora, tashkilot, muassasalar boshqaruv instituti orqali yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan rejalarni ishlab chiqadilar hamda amalga oshiradilar. Shular jumlasiga siyosiy partiyalar ham kiradi. Ko'ppartiyaviylik tizimida siyosiy partiyalar boshqaruvni amalga oshirib, o'z oldilariga qo'ygan maqsadga erishishga harakat qilishadi. Demokratik boshqaruvga tayangan siyosiy partiyaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi nufuzi oshib boraveradi. Shunday ekan, siyosiy partiyalarni demokratik boshqaruv shakliga amal qilishi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Tadqiqotning obyekti sifatida demokratik boshqaruvda ko'ppartiyaviylik tizimining o'ziga xos jihatlari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda kompleks yondashuv, analiz va sintez, funksional yondashuv, kuzatuv, kontent-analiz, qiyosiy-tarixiy, retrospektiv tahlil, nazariy modellashtirish, induksiya, deduksiya kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Boshqaruv haqida Platon fikr yuritib: "...yaxshi boshqaruv, agarda u bo'lsa, uni bir, ikki yoki juda bo'lmaganda kamchilik odamlardan izlagan ma'qul. Va biz bu odamlar xayrli niyatlarimizga muvofiq keladimi yoki unga zidmi, qoidalarga mosmi yoki yo'qmi, boymi yoki qashshoqmi, ular qandaydir boshqaruv san'atiga asoslanib boshqarayotganligi bilan hisoblashamiz" [2]. Haqiqatan, boshqaruvchi shaxs yoki boshqaruvchilar guruhi tomonidan boshqaruv obyekti to'g'ri, maqsadga muvofiq boshqarilganda, obyekt taraqqiyotga erishadi yoki aksincha.

Obyekt (masalan, inson yoki jamiyat) subyektga o'z irodasini ifoda etib vakolat beradi, ya'ni Platon fikri bilan aytganda, bemor tabibga ishongani singari, agar tabib yaxshi davolasa, bemorning sog'ligi mustahkamlanadi, davolovchi yaxshi bo'lmasa bemor kuchsizlanib boraveradi. Boshqaruv jarayoni ham shunday, ya'ni boshqaruvchi (subyekt) qanchalik "boshqaruv san'atiga asoslanib" [2] obyektini boshqarsa, oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi.

Boshqaruv funksiyasi boshqaruvni amalga oshirish uchun bajarish zarur bo'lgan boshqaruv harakatlari majmuasini belgilaydi. Boshqaruv jarayoni – bu bitta funksiyaning natijasi keyingisiga asos bo'ladigan alohida funksiyalarning bajarilish ketma-ketligidir [3]:

103]. Agar ketma-ketlik jarayonida uzilish sodir bo'ladigan bo'lsa, boshqaruv o'z funksiyasini to'liq bajara olmaydi. Buning uchun albatta, boshqaruvni amalga oshirish ketma-ketligini to'g'ri hal etish zarur bo'ladi.

V.I.Knorrning "Keng ma'noda boshqaruv atamasi – vaqt va resurslarni kamroq sarflab eng yaxshi natijaga erishish uchun boshqaruv obyektiga (shaxs, jamoa, texnologik jarayon, korxona, davlat) uzluksiz ta'sir etish jarayoni" [4] deb fikr bildiradi. Haqiqatan, boshqaruv jarayonida oldinga qo'yilgan maqsadga erishish uchun kam vaqt va resurslardan foydalanilsa, u o'zining ijobiy natijasini beradi, buning uchun esa boshqaruv subyekti obyektga to'g'ri yo'lni, ya'ni vazifani topshirishi va uning ijrosini kuzatishi talab etiladi. Boshqaruv jarayoni boshqaruv subyekti yoki subyektlari tomonidan qarorni qabul qilish va maqsadga erishishgacha bo'lgan yo'lni o'z ichiga qamrab oladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, bugungi kunda boshqaruv subyekti yoki subyektlaridan tashqari ayrim boshqaruv obyektlari ham qarorlar ijrosini nazorat etishda ishtirok etmoqda. Jumladan, jamoatchilik nazorati, ijro hokimiyati rahbari (Bosh vazir), mahalliy davlat organlari birinchi rahbarlari (hokim)ning hisobdorligi kabi tushunchalar zahirida fikrimizning isboti turibdi. Shuningdek, parlament nazorati, parlament so'rovi, parlament tergov kabi institutlar orqali boshqaruv subyektlari faoliyati nazorat etiladi.

Falsafiy o'lchamda pirovardidagi boshqaruv haqiqati juda sodda: barcha insoniyat tizimida boshqaruv bir sabab – har bir insonning yakkaga o'zi kuchi yetmaydigan ishlariga yordam berish tufayli ham mavjud, demak, har qanday boshqaruv, o'z yakunida kishilarni uyushishga faol intilishini rag'batlantiradi [5]. Bu jarayon kishilik jamiyati vujudga kelgandan to hozirga qadar davom etmoqda. Insoniyatning ilk davrida odamzot faqat tabiiy jarayonlar tufayli uyushishga intilgan va o'zlariga boshqaruvchi belgilagan bo'lsa, bugun nafaqat tabiiy, balki ijtimoiy jarayonlar ham boshqaruv obyektlarini birlashtirishini va ularni subyekt tomonidan boshqarilishini keltirib chiqarmoqda. Kishilik jamiyatining qadimgi davrlarida odamlar yashash uchun kurashib tirikchilik uchun uyushganlar va bu jamoani yoshi ulug' urug' yoki qabila oqsoqoli boshqargan. "Bu ancha sodda, davlatgacha bo'lgan demokratiya yoki jamoaviy o'zini-o'zi boshqarish edi" [6]. Bugungi kunda insoniyat iqtisodiy-moddiy ahvolini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash, ta'lim olish, umuman aytganda, shaxs o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa huquqlarini amalga oshirish maqsadida bir-biriga tayanmoqda. Demokratik tartiblar o'rnatilgan jamiyatda boshqaruv subyekti saylanish orqali kishilar uyushmasiga rahbarlik qilmoqda.

M.Veber fikricha, demos insonlar ommasi ma'nosida hech qachon katta ijtimoiy tuzilmalarni mustaqil boshqara olmaydi, aksincha, boshqaruv obyekti hisoblanadi va hukmronlik qiluvchi boshqaruv-elitalar turi hamda unga ta'sir etish darajasini aniqlaydi, xolos [7]. To'g'ri, kishilar ommasi jamiyatdagi muayyan tuzilmalarni bevosita boshqara olmaydi, ammo ular o'zlarining vakillari, ya'ni boshqaruv subyektlarini bevosita shakllantirishda ishtirok etadilar.

Reprezentativ (vakillik) demokratiyaning elitar demokratik konsepsiyasida xalq saylovlar orqali elitani yuzaga keltirishi va uning faoliyatini nazorat qilishi ko'zda tutiladi. "Demokratiya bu holda – xalqning roziligi bilan amalga oshiriluvchi elita boshqaruvidir. U hokimiyatni tuzish usullariga olib borib, boshqaruvning boshqa shakllari bilan taqqoslaganda uning afzalliklari, saylovlarda amalga oshiriluvchi xalq hakamligi yordamida oshkorlik va elitaning raqobatli almashinuvini ta'minlashdan iboratdir" [6]. Demokratiyaning ushbu turi boshqalariga qaraganda o'tish davri mamlakatlarida birmuncha afzalliklariga ega bo'lib, o'ziga xos ommaning tartibini yuzaga keltiradi, boshboshdoqlik, tartibsiz ommaning oldini oladi. Haqiqatan, ushbu xususiyatlari bilan elitar demokratik konsepsiya o'zining muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Partitsipator demokratiya esa rivojlangan, fuqarolarining huquqiy va siyosiy madaniyati yuksak bo'lgan mamlakatlarda o'zining samarasini beradi. Ushbu demokratik boshqaruvda xalq nafaqat vakillarini hokimiyatga olib kelish bilan cheklanadi, balki ular "qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishda, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qilishda ham faol qatnashishlari kerak... Ko'pchilik odamlarning boshqaruvda qatnashishi qarorlar qabul qilish uchun intellektual imkoniyatni kengaytiradi, ularning muvofiqlashuv ehtimolini oshiradi, demak, siyosiy tizimning barqarorligi va boshqaruvning samaradorligini oshiradi" [6]. Hozirda O'zbekistonda mazkur konsepsiya doirasida bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar (2014 yil 16 aprel), shuningdek, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" (2018 yil 12 aprel), "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" 2014 yil 25 sentabr)gi qonunlarning qabul qilinishi fikrimizning isbotidir. Bu esa D.V.Katayevning "ommaviy demokratiya sharoitida byurokratiya shak-shubhasiz boshqaruv vositasi bo'ladi" [7] degan fikriga ziddir. Chunki fuqarolarning siyosiy jarayonlarda keng ishtirok etishi mansabdor shaxslar ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi, hokimiyatni suiiste'mol qilishni, deputatlarni xalqdan ajralib qolishini, mansabdorlarning byurokratlashuvini bartaraf etadi [6: 235]. Vakillik boshqaruvida boshqaruv obyekti o'z taqdirini vakil (vakillari) irodasiga ishonib topshiradi.

Har qanday kishilik jamiyatida hokimiyat strukturasi ikkita bir-biriga qarama-qarshi kuchlar kurashining natijasi sifatida chiqadi: bir tomondan manfaatlar yo'nalishi, boshqa tomondan zaruriy amaliyot. Mana shuning uchun ham partiyalar boshqaruvi, ko'pchilik zamonaviy ijtimoiy birlashmalar – kasaba uyushmalar, turli-tuman jamoat va boshqa tashkilotlarning boshqaruvi kabi ikki taraflama xarakterga ega: demokratik ko'rinish, oligarxik mazmun [8]. Fransuz mutafakkiri M.Dyuverjening fikridan, siyosiy partiyalar davlat hokimiyatiga o'z vakillarini qo'yish uchun kurash olib borar ekan, elektorat manfaatlarini ifodalash bilan birga, boshqaruv tizimiga ham ega bo'ladi degan xulosaga kelamiz.

Fikrimizcha, siyosiy partiyalar davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etib, ham tashqi, ham ichki boshqaruvni amalga oshirishda qatnashadi. Buni V.Meytus, V.I.Meytuslarning "Partiya boshqaruvinin tashkil etish, bir tomondan, boshqaruv davomida amalga oshirilgan vazifalar to'plami, boshqa tomondan – partiya faoliyatini bilish jarayoni bilan aniqlashtiriladi" [3] – degan fikrlari ham tasdiqlaydi.

Bizningcha, tashqi demokratik boshqaruvni shakllantirish deganda, siyosiy partiya saylovlarda ishtirok etishi, davlat hokimiyatini shakllantirishi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi organida faoliyat olib borishi, ijro hokimiyati rahbarini tayinlanish jarayonida ishtirok etishiga tushuniladi.

Siyosiy partiyalarning ichki demokratiyasi deganda, partiyaning struktural tarkibida demokratik boshqaruvning barcha elementlari mujassamlashtirilgan bo'lishi darkor. Chunki siyosiy partiyalar demokratiyaning muhim elementi sifatida ichki demokratik tartiblarni, avvalo, o'zidan boshlab amalga oshiradi. Albatta, bunda xalqning o'ziga xos mentalitetini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Masalan, AQSHdagi boshqaruv asosida individual yondashuv, individual mas'uliyat, nazorat mexanizmlari va boshqaruv strukturalarini formallashtirish, ixtisoslashuv va tashabbuskorlik, xizmat pog'onalarida ko'tarilish va yuqori harakatchanlik kuzatilsa, yapon boshqaruv prinsipi xitoy va koreyslarnikiga o'xshab, jamoaviylik va ierarxiya (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi)ga asoslanadi [9]. O'zbekiston siyosiy partiyalari ham o'zbek xalqining mentalitetidan kelib chiqqan holda, ichki boshqaruv demokratiyasini qaror toptirishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir mutaxassis boshqaruv doirasida boshqaruv nazariyasi, amaliyoti va san'atini egallashga, o'z faoliyatini maqsadlarini, ularga erishish uchun zarur bo'lgan strategiya va taktikani aniqlab olishga, boshqaruv qarorini qabul qilish va ular uchun shaxsiy mas'uliyatni olib borishga majbur [4]. Siyosiy partiya rahbari (lideri) boshqaruvni amalga oshirishda partiya dasturiga tayanadi. Shu bilan birga, qabul qilinayotgan qarorlarni ijrosini ta'minlashda nazoratni ham, mas'uliyatini ham olib borishi qo'yilgan vazifani samarali bajarilishiga sabab bo'ladi.

Avvalo, boshqaruv jarayoni quyidan boshlanadi. Partiyani quyi tashkilotlarida boshqaruvning samarali tartibi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, u partiyani nufuzini oshirishga sabab bo'ladi. O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalarning boshqaruv doirasi ibtidosi boshlang'ich partiya tashkilotlaridan boshlanadi. Birinchi navbatda boshlang'ich partiya tashkiloti rahbarida g'oyaviy e'tiqod shakllangan bo'lishi zarur. G'oyaviy e'tiqod, o'z navbatida tashkilotning barcha a'zolarida bo'lishi ham talab, ham obyektiv zaruratdir. Zero, insonda g'oyaviy e'tiqod shakllanmagan ekan, unda o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish uchun ishonch ham bo'lmaydi. Partiya rahbari, yetakchisi partiya dasturida ilgari surilayotgan g'oyaga, avvalo, o'zi ishonishi, e'tiqod qilishi kerak. O'shanda u boshqa partiya a'zolaridan g'oyaviy e'tiqodli bo'lishni talab qila oladi.

Fikrimizcha, mamlakatimizdagi siyosiy partiyalarning boshlang'ich partiya tashkilotlari partiyaga a'zo bo'lib kirmoqchi bo'lgan nomzodlar tanlovda asosiy mezon sifatida nomzodning g'oyaviy e'tiqodlilikini sinovdan o'tkazishi lozim. Demak, partiya qabul qilish tanlovining ilk mezoni bu – g'oyaviy e'tiqodlilik. Shuningdek, partiya a'zosi vatanparvarlik, xalqparvarlik fazilatlarini ham bo'lishi o'zining ijobiy natijasini beradi. Vatanparvar, xalqparvar bo'lmagan inson o'z qobig'iga o'ralib qoladi, xalq dardiga sherik bo'la olmaydi. Bugun jamiyat siyosiy partiyadan, uning a'zolaridan mana shu xususiyat va fazilatni kutayпти.

Partiya saflariga qabul qilinadigan nomzodlar yaratuvchan va mehnatsevar bo'lishi kerak. Buni albatta, boshqaruvchi (siyosiy partiyani boshlang'ich partiya tashkilotidan to oliy organlari rahbarlari) nomzodning shaxsiy fazilati, amaliy faoliyatidan kelib chiqib aniqlashi lozim. Partiya safi yaratuvchan va mehnatsevar inson bilan boyishi, nafaqat partiya obro'-e'tiboriga, shuningdek, jamiyatga katta naf keltiradi.

Siyosiy partiyalar fuqarolik jamiyatining subyekti sifatida faoliyat olib borar ekan, u davlat hokimiyati institutidan kam o'rinda turmasligi muhimdir. "Demokratik boshqaruvning yangi modelida davlat va jamiyat o'rtasida subyekt-subyekt munosabatlari o'rnatilishi kerak, natijada sezilarli muhim o'rinlarni jamoatchilik sektori va davlat-ijtimoiy strukturalar egallaydi" [10]. Ya'ni siyosiy partiyalar (ulardan saylangan vakillar) davlat hokimiyatiga kelgandan so'ng, avvalo, jamoatchilikka, uni qo'llab-quvvatlagan elektoratga "yuqoridan" emas, balki o'zi bilan teng munosabatda bo'lib korporativ boshqaruvni amalga oshiradi. S.M.Yeliseev fikriga ko'ra "...bundan keyin boshqaruv an'anaviy sotsial guruhlarining imtiyozli bo'lib qolishi kerak emas. Fuqarolik huquqlarining kengaytirilishi, o'z navbatida, ma'muriy organlari tomonidan barcha shaxslarga bir xil munosabatda bo'lishni talab etadi" [11]. Ya'ni fuqarolik jamiyatida davlatning ijtimoiylashuvi kengayib boraveradi. Bu esa siyosiy partiyalarni fuqarolik jamiyatining subyekti sifatidagi mavqeini oshiradi.

Fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, partiya "vakillik demokratiyasining elementi" [12] ham hisoblanadi. Siyosiy partiya o'zining ichki strukturasini, ya'ni boshlang'ich partiya tashkilotlari orqali jamiyat uchun zarur ehtiyojlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa o'z navbatida uni fuqarolik jamiyati muammolarini aks ettirish va yechishga imkon yaratadi. Shu sababli ham, partiyani ichki strukturasida, ya'ni vertikal o'qda uning quyidan to yuqorigacha bo'lgan organlarida demokratik boshqaruv qaror topishi o'zining samarali natijalarini beradi.

Hozirda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalarning boshqaruv tizimi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining oliy rahbar organi syezd hisoblanadi va u uch yilda kamida bir marotaba o'tkaziladi (navbatdan tashqari syezdlar chaqirilishi ham dasturda qayd etilgan). Siyosiy kengash syezdlar oralig'idagi davrda partiyani markaziy rahbar organi hisoblanadi. O'zLiDeP Siyosiy kengashining ijroiya qo'mitasi partiyani doimiy faoliyat yurituvchi markaziy boshqaruv, ijroiya va muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanadi. Markaziy nazorat-taftish komissiyasi partiyani markaziy organlaridan biri bo'lib, partiyani rahbar va ijroiya organlari, quyi partiya tashkilotlari ustidan uning ustavi va rahbar organlari qarorlarining bajarilishi hamda ularning moliyaviy xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi. Hududiy partiya tashkilotining oliy organi – konferensiya.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi qurultoyi, Siyosiy kengash, uning Rayosati, Markaziy taftish komissiyasi, Siyosiy kengashning ijroiya qo'mitasi, Siyosiy kengashning Markaziy apparati, hududiy partiya kengashlari, boshlang'ich partiya tashkilotidan iborat boshqaruv tizimiga ega. "Adolat" SDP Siyosiy kengashining Rayosati Siyosiy kengash plenumlari oralig'idagi davrda partiyani markaziy rahbar organi hisoblanadi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining oliy rahbar organi besh yilda kamida bir marta chaqiriladigan qurultoy (syezd), yuqori boshqaruv organi Markaziy kengashdir. Partiyani Markaziy nazorat-taftish komissiyasi besh yil muddatga qurultoy tomonidan saylanadi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining yuqori (oliy) rahbar organi qurultoydir, u besh yilda kamida bir marta, qoida tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o'tkaziladigan saylovlarda prezidentlikka va deputatlikka nomzod ko'rsatish davrida chaqiriladi. Partiyani Markaziy kengashi qurultoylar oralig'idagi davrda partiyani yuqori rahbar organi hisoblanib, siyosiy partiyani manfaatlarini ifodalaydi va uning nomidan ish ko'radi. Partiyani markaziy nazorat organi – O'zbekiston XDP Markaziy taftish komissiyasi hisoblanadi. O'zXDPning plenumlari zaruratga qarab bir yilda kamida bir marta o'tkaziladi. Konferensiya hududiy partiya tashkilotining oliy organidir.

O'zbekiston Ekologik partiyasining oliy boshqaruv organi partiya Syezdi hisoblanadi, u kamida besh yilda bir marta chaqiriladi. Syezdlar orasidagi davrda Partiyani markaziy rahbar organi Partiya Markaziy Kengashidir. Partiya Markaziy Kengashining Plenumi Partiya Markaziy Kengashining asosiy faoliyat shakli bo'lib, yiliga kamida bir marta chaqiriladi va a'zolarining yarmidan ortiq a'zosi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi. Hududiy partiya tashkiloti Kengashi tegishli hududiy partiya tashkilotining konferensiyalari orasidagi davrda rahbar organi hisoblanadi, uning manfaatlarini ifoda etadi va uning nomidan ish ko'radi.

Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan partiyalarning tashkiliy tuzilishidan ko'ramizki, barcha partiyalarning boshlang'ich, hududiy (mintaqaviy) va markaziy tashkilotlari mavjud. Ular mazkur sxema asosida boshqaruvni amalga oshiradi. Ta'kidlanganidek, boshqaruvning quyida to'g'ri tashkil etilganligi, uning nufuzini oshiradi. Shuning bilan birga, boshqaruv jarayoni barcha bo'g'inlarda demokratik tartiblarga amal qilingan holda tashkil etilishi shart. Bu esa partiyani ham ichki, ham tashqi demokratik boshqaruvni ta'minlab beradi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, innovatsion boshqaruv jamiyatni modernizatsiyalash va demokratlashtirish jarayonlari bilan uyg'un kechsa, u o'zining samarali natijalarini beradi;

Ikkinchidan, boshqaruvchi yoki boshqaruvchilar guruhi (korporativ boshqaruv) tomonidan boshqaruv obyekti maqsadga muvofiq boshqarilganda obyekt taraqqiyotga erishadi;

Uchinchidan, demokratik boshqaruv ma'naviy-axloqiy fazilatlariga tayanadigan boshqaruv shakli bo'lib, bu qadimdan yurtimizda amalga oshirilgan va boshqaruvning bunday shaklini mamlakatimiz siyosiy partiyalari faoliyatida qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi;

To'rtinchidan, O'zbekiston siyosiy partiyalari faoliyatida innovatsion boshqaruv tartibini joriy etish muhim, chunki siyosiy partiyalar boshqaruv obyekti sifatida subyektni shakllantirishda asosiy vositachi hisoblanadi.

Beshinchidan, siyosiy partiyalar ichki va tashqi demokratik boshqaruvni amalga oshiradi va bu jarayonda xalqning mentaliteti, elektorat manfaat va orzu-istaklarini hisobga olish nihoyatda muhimdir;

Oltinchidan, fuqarolik jamiyatida davlatning ijtimoiylashuvi siyosiy partiyalarning mavqeini oshishiga sabab bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // URL – <http://press-service.uz/uz/lists/view/1371>
2. Platon. Politika dialogi. /http://www.gumer.info/bogoslov_Buks/Philos/Platon/polit.php – murojaat qilingan sana – 21.01.2025.
3. Мейтус В., Мейтус Вл. Политическая партия: стратегия и управление. – Киев: Елга, Ника-Центр, 2004. – С.103.
4. Кнорринг В. И. Теория, практика и искусство управления. – М.: Издательство НОРМА, 2001. – 528 с.
5. Богачек И.А. Непознанные закономерности управления //Инициативы ХХI века. 2010. №1. – С. 34.
6. Pugachev V.P., Solovov A.I. Siyosatshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B.233; 235; 241.
7. Катаев Д.В. Типы демократического управления в социологии М.Вебера / Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2009. №8. – С. 73.
8. Дюверже М. Политические партии / http://bookz.ru/dl2.php?idq=40584&tqz&gq20&fqduverje_m01&a_idq9283– murojaat kilingan sana – 09.03.2024.
9. Леонова О.О., Костылева С.Ю. Специфика формирования современной модели управления //Политическое управление: научный информационно-образовательный электронный журнал. Сетевое электронное издание, ISSN 2221-7703]. 2013. № 03 (06). <http://www.pu.virmk.ru/arhiv/2013/03/LeonovaOO.htm> – murojaat kilingan sana – 16.08.2024.
10. Пушкарев Е.А. Критерии эффективности политико-правового взаимодействия в управлении / Власть. 2010. №12. –С. 136.
11. Елисеев С.М. Политическая социология: Учебное пособие. – С-Пб.: 2007. – С. 153.
12. Никоненко С.А. Политические партии как институт политической организации гражданского общества //Вестник ТГУ, выпуск 10 (102), 2011. – С. 280.

Muallif:

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich – O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Ma'muriy-tashkiliy faoliyati fakulteti boshlig'i, falsafa fanlari doktori, professor.

UDK 372.83

"KUTADGU BILIG" - A UNIQUE SOURCE ON THE HISTORY OF NATIONAL THOUGHT

"QUTADGU BILIG" - MILLIY TAFAKKUR TARIXINING NOYOB MANBASI SIFATIDA

«КУТАДГУ БИЛИГ» - УНИКАЛЬНЫЙ ИСТОЧНИК ПО ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ МЫСЛИ

Madayeva Shahnoza Amanullayevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. 100174, Toshkent, Universitet Ko'chasi 4.

E-mail: shmadaeva@gmail.com

Abstract. This article analyzes the roots of Uzbek national thought, moral and cultural stereotypes of Turkic peoples on the example of Yusuf Khos Khojib's work "Kutadgu bilig". Also, in the process of historical-retrospective analysis, the methodological features of studying the work, problems of scientific objectivity and ideological integration are studied.

Key words: Yusuf Khos Khojib, "Kutadgu bilig", Turkology, orientalism, identity, national ideology.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yusuf Xos Xojibning "Qutadgu bilig" asarida turkiy xalqlar, o'zbek milliy tafakkurining ildizlari, axloqiy va madaniy stereotiplari tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy-retrospektiv tahlil jarayonida asarni o'rganishning metodologik xususiyatlari, ilmiy obyektivlik va g'oyaviy integratsiyadagi muammolar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Yusuf Xos Xojib, "Qutadgu bilig", turkologiya, orientalizm, identiklik, milliy ideologiya.

Kirish. Milliy tafakkur tarixida ong omilini representatsiya qilish va holatini ko'rsatish juda murakkab jarayondir. Ong nomoddiy omil bo'lgani uchun uni faqat tarixiy jarayondagi yozma manbalar orqali murakkab matritsaviy usulda ochib beriladi. O'zbek xalqi tarixida turkiy til kontenti orqali milliy tarixni bog'lovchi, boshqa xalqlarda bunchalik ko'p va to'laqonli mavjud bo'lmagan qadimgi parameologik manbalar, ya'ni matal va masal, maqollar va dostonlar hisoblanadi. Bundan keyingi davr bilan birga ilk O'rta asrlarda yaratilgan va turkiy til kontenti orqali bizgacha turkiy xalqlar an'analari, madaniyati, tafakkur tarzi xususiyatlari haqida ma'lumot beruvchi ikki asosiy manba mavjud bo'lib, bu Yusuf Xos Xojibning "Qutadgu bilig" va Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'otut-turk" asarlaridir. Aslida ushbu asarlar bilan ozgina vaqt farq oralig'ida bitilgan Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoiq" asarlari ham noyob manba sanalsa-da, asosiy e'tibor, turkiy til manbasi bo'yicha murojaat nuqtayi nazaridan, Yusuf Xos Xojib va Mahmud Qashg'ariy kitoblariga bo'lgan. Akademik Bartoldning fikricha, turkiy til tarixiga bag'ishlab yozilgan noyob adabiyotning Qashg'arda paydo bo'lishi tasodifiy emas edi, chunki bu davrda Yusuf Xos Xojibning yashab turgan hududi islom missionerligi va fors ta'siridan ancha xoli edi.

*** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ***

*** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2025. № 2 ***

Axrorov Alisher Akbarovich. MAQOLLARDA MULOQOT MADANIYATI MASALASI VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	115
Nosirov Is'hoqxon. KO'NGIL HAYRATLARI.....	118
Buriyev Ilxamjan Ergashevich. VIZUAL INTERFEYS DAVRIDA KOMPYUTER MATNLARINING SEMIOTIKASI VA LEKSIKASI: SO'ZLAR VA PIKTOGRAMMALARNING O'RNI.....	121
Tadjiyev Kanimkul. POETIK TIL VA BADIY USLUB.....	124
Kilichbayeva Manzura Xoljigit kizi. RUS TILIDAGI LEKSIK O'ZGARISHLARNING SINXRON VA DIAKRON JIHATLARI BO'YICHA TADQIQOT NATIJALARINING SHARHI.....	129
Kuldosheva Nigora Shamsitdinovna. INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'QUV-ILMIY LEKSIKANING TARJIMA XUSUSIYATLARI: SEMANTIK-USLUBIY TAHLIL.....	131
Nurmuxamedova Dilbar Faruxovna. TARKIBIDA ETNONIMLAR MAVJUD FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TUZILISHI VA SEMANTIKASI.....	134
Kulbayeva Saodat Safarovna. TARJIMA VA MADANIYATLARARO MULOQOT.....	136
To'ychiyev Abdunabi Xudoyberdiyevich. UMUMINSONIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHIDA MILLIY MADANIYATNING O'RNI.....	139
Qosimova Dilfuza Rustam qizi. BADIY ADABIYOTDA PEYZAJ VA UNING AHAMIYATI.....	141

IJTIMOIIY FANLAR

Shermuhamedova Niginaxon Arslanovna. OLIMNING IJTIMOIIY MAS'ULIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	143
Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich. DEMOKRATIK BOSHQARUVDA KO'PPARTIYAVIYLIK TIZIMI MUHIM INSTITUT.....	146
Madayeva Shahnoza Amanullayevna. "QUTADG'U BILIG" - MILLIY TAFAKKUR TARIXINING NOYOB MANBASI SIFATIDA.....	149
Ro'zimurodov Siroj Madatovich. YOSHLARDA TARBIYASIDA SOG'LOM MA'NAVIIY MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY VA DUNYOVIY QADRIYATLARNI O'RNI.....	151